


2020- yil yanvar-avgust oylari uchun Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatida jami **3855,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019-yilning yanvar–avgust oylariga nisbatan **99,8 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **115,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **54,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **131,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **124,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,5 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.09.2019- yil	01.09.2020- yil	
Toshkent viloyati	2840	3402	119,8
Nurafshon sh.	127	165	129,9
Olmaliq sh.	179	203	113,4
Angren sh.	222	260	117,1
Bekobod sh.	152	169	111,2
Ohangaron sh.	89	105	118,0
Chirchiq sh.	238	288	121,0
Yangiyo'l sh.	81	81	100,0
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	77	92	119,5
Ohangaron	61	74	121,3
Bekobod	96	101	105,2
Bo'stonliq	100	121	121,0
Bo'ka	104	98	94,2
Quyi Chirchiq	63	87	138,1
Zangiota	189	230	121,7
Yuqori Chirchiq	169	200	118,3
Qibray	243	328	135,0
Parkent	91	99	108,8
Piskent	66	77	116,7
O'rta Chirchiq	169	216	127,8
Chinoz	77	109	141,6
Yangiyo'l	128	161	125,8
Toshkent	119	138	116,0



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.09.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




- Nurafshon sh ● Olmaliq sh ● Angren sh ● Bekobod sh ● Ohangaron sh ● Chirchiq sh ● Yangiyo'l sh ● Oqqo'rg'on
- Ohangaron ● Bekobod ● Bo'stonliq ● Bo'ka ● Qiyi Chirchiq ● Zangiota ● Yuqori Chirchiq ● Qibray ● Parkent
- Piskent ● O'rta Chirchiq ● Chinoz ● Yangiyo'l ● Toshkent

Ma'lumot uchun: viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray (9,6 %), Chirchiq sh. (8,5 %) va Angren sh. (7,5 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **835,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **122,4 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,1 %** punktga ko'payib, **21,7 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,9 %** i yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **137,1 %**), Qibray (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **179,5 %**), va Yuqori Chirchiq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,9 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **95,5 %** ni tashkil etgan holda **2361,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,1 %** ni tashkil etdi yoki **658,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **93,2 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **87,5** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **431,0** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3768,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **870,8** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **2,3** % va **97,7** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki




Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	3855,8	99,8	100,0
Nurafshon sh.	166,8	100,6	4,3
Olmaliq sh.	167,9	89,4	4,4
Angren sh.	164,6	97,2	4,3
Bekobod sh.	152,1	87,9	3,9
Ohangaron sh.	137,6	100,3	3,6
Chirchiq sh.	198,0	97,9	5,1
Yangiyo'l sh.	93,8	89,8	2,4
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	112,1	100,6	2,9
Ohangaron	111,9	99,8	2,9
Bekobod	109,3	91,5	2,8
Bo'stonliq	169,8	98,9	4,5
Bo'ka	103,5	98,3	2,7
Quyichirchiq	85,7	100,7	2,2
Zangiota	489,1	109,0	12,7
Yuqori Chirchiq	258,8	104,6	6,7
Qibray	344,1	101,7	8,9
Parkent	227,3	103,2	5,9
Piskent	116,7	93,9	3,0
O'rta Chirchiq	168,7	103,9	4,4
Chinoz	110,6	98,1	2,9
Yangiyo'l	143,1	95,7	3,7
Toshkent	224,3	104,1	5,8



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-avgust oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1
Zangiota
489,1

2

Qibray
344,1

3
Yuqori Chirchiq
258,8



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1
Bo'ka
103,5

2

Yangiyo'l sh.
93,8

3
Quyi Chirchiq
85,7





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70